



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 5 (7)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 5-son 2026 yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

5

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Minojiddinov A.A. Meva-sabzavot tarmog‘i korxonalarini boshqarishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish yo‘llari	8
Mirzayev A.T., Dilnozaxon M. O‘zbekistonda turizm marketingi samaradorligini baholash va uni takomillashtirishning integratsiyalashgan mexanizmi.....	12
Shavkatov A.Sh. O‘zbekistonda kichik biznes rivojlanishining institutsional va makroiqtisodiy asoslari.....	16
Махаммаджанов М.М. Инновационная трансформация банковского сектора Узбекистана: общесистемные тенденции и финансовые результаты.....	20
Sativaldiyeva G.X. IFRS 16 “Ijara” xalqaro standartiga muvofiq ijara hisobidagi o‘zgarishlar.....	24
Ismailov X.M. Aloqa korxonalari moliyaviy barqarorligini ta‘minlash metodologiyasini takomillashtirish masalalari.....	28
Yusubov I.I. Mintaqada iqtisodiyotni barqarorlashtirishda raqamli xizmatlarning rivojlanishi.....	32
Saidaxmedov N.X. Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoiyatini shakllanishi va rivojlanishining zamonaviy nazariyalari.....	35
Istamqulov D.Q., Danyarova F.B. Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni takomillashtirish yo‘llari.....	40
Aipova I.I. Resurs samaradorligini baholashning nazariy usullari va ko‘rsatkichlari.....	43
Mirzaraximova A.A. Tijorat banklari tomonidan aloqa sohasini moliyalashtirish samaradorligini oshirish yo‘llari.....	49
Xalmirzaev A.A. Yer va suv resurslaridan samarali foydalanishda hududiy ixtisoslashuvning ahamiyati va iqtisodiy samaradorligi.....	53
Sidikov Z.A. Sirdaryo viloyatida sanoatlashtirish jarayonining hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta‘siri.....	59
Usmanova N.Y. Raqamli iqtisodiyotda menejment qarorlarini qabul qilishda innovatsion texnologiyalarning roli.....	63
Ergashev R.X., Rajabaliyeva I.A. Transport-logistika infratuzilmasini raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirish va uning samaradorligini oshirish.....	67
Raximova D.S. Barqaror restoran amaliyotlari: oziq-ovqat chiqindilarini kamaytirish va qayta ishlashning innovatsion yondashuvlari.....	70
Narzullayeva X.A. Investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishning xalqaro tajribalari.....	76
Muxitdinov Sh.Z. Kichik agrobiznes subyektlarida mahsulotlar eksportini rivojlantirishga ta‘sir etuvchi omillar.....	84
No‘monov O.O‘. Agrotadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatiga ta‘sir etuvchi makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy omillarni kompleks baholash.....	88
Yeshimbetov U.X. O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.....	92
Raximova K.N. Tadbirkorlik sharoitida yashil biznesni tashkil etish va rivojlantirishining o‘ziga xos xususiyatlari	97
Хошимов П.З., Тўрахожайев Х.Х. Ислоний банкларнинг ишлаш тамойиллари ва ислон молия тизимининг Ўзбекистон иқтисодиётига таъбиқи.....	100
Sattarov R.A. An integrated methodological framework for evaluating and forecasting interregional economic cooperation: an input-output approach (evidence from Uzbekistan).....	107
Farmanov J.Z. Mintaqada asalarichilik ekotizimining tamoyillari va ekologik-geografik xususiyatlarini takomillashtirish	111
Qurbonov A.B. Janubiy iqtisodiy rayonda qishloq xo‘jaligi orxonlarining tarkibiy o‘zgarishi va agrar kooperatsiyani rivojlantirish yo‘nalishlari.....	114
Тоштемуров Т.Т. Ўзбекистонда кичик тадбиркорлик субъектлари фаолиятини кенгайтиришда солиқ механизмларида фойдаланиш масалалари.....	119
Arziyev M.A. O‘zbekiston iqtisodiyotini transformatsiyalash sharoitida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari.....	122
Maxkamova S.Sh. Ekologik innovatsiyalar orqali yerni oqilona boshqarishning tashkiliy va iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	127
Olimova N.X. Yashil moliyalashtirishning rivojlanish tendensiyalari hamda hozirgi amaliyoti: milliy kontekst	137
Zaylobitdinova H.X. Davlat oliy ta‘lim muassasalarining tijorat faoliyatini samarali boshqarish strategiyalari.....	141
Komilov A.I. Evolution of the catering industry in the context of digital technologies.....	145

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 5-son 2026 yil

Sotvoldiyev N.N. Mamlakatimizda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda mehnat bozoriga ta'sir etuvchi omillar.....	149
O'rinov A.A. Sanoat tarmoqlarining investitsion imkoniyatlarini barqarorlik indikatorlari asosida boshqarish mexanizmlari.....	154
Ahmadaliyeva R.A. O'zbekistonda xufyona iqtisodiyotga qarshi kurashish samaradorligi.....	158
Uzganbayeva D.T., Alimova Sh.F. The role of investment strategies in transforming small business entities into large corporate structures.....	162
Goziyev M.Sh., Abdufattoyeva M. Sun'iy intellekt asosida iqtisodiy qarorlar qabul qilish samaradorligini oshirish.....	167
Qobilov H., Uzganbayeva D.T. O'zbekiston iqtisodiyotida xususiy tadbirkorlikning ro'li: so'nggi yillardagi islohotlar sharoitida iqtisodiy o'sish va bandlikka qo'shayotgan hissi.....	170
Sotiboldiyeva R., Uzganbayeva D.T. O'zbekistonda xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishda moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining ahamiyati.....	174
Маматкулов З.Ш. Хизмат кўрсатиш фаолиятининг шакллантириш ва бошқаришда хориж тажрибаларидан самарали фойдаланишнинг инновацион йўналишлари.....	179
Shamsiddinov P., Uzganbayeva D.T. Iqtisodiyotning raqamlashtirishning afzaliklari va uning oqibatlari.....	185
Qosimov A.S. Jizzax viloyati mahallalarining qayta nomlanishi va demografik jarayonlar va iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari.....	189
Qodirov A., Tulaganov E.J., Berdimurodov U.S. Inson kapitalini kapitalizatsiya qilish va samaradorligini oshirish.....	192
Saidkarimova M.I., Sobirov O.A. Sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish yo'llari.....	199
Saidova M.J. Sanoat transformatsiyasi sharoitida kichik biznes va tadbirkorlikning o'rni (Andijon viloyati misolida)	203
Юсупов А.С., Пардаев Х.Ф. Динамическое управление международным портфелем акций: механизмы ребалансировки и преимущества глобальной диверсификации в условиях волатильности валютных рынков.....	206
Burxonov J.X., Soliyev I.I. Mehnat bozorini tartibga solishda innovatsion yondashuvlarning xorij tajribasi tahlili.....	213
Xaitbaev J.O. Mintaqa iqtisodiyotini barqarorligini ta'minlashda suv resurslaridan foydalanishning ko'p omilli ekonometrik modellari.....	217
Saidov U.S. Kichik tadbirkorlik subyektlarida ekologik innovatsiyalarni rag'batlantirishning moliyaviy yo'nalishlari.....	221
Nurmaxanmadov N.B. Iqtisodiyotning ekologiyaga ta'sir moyilligining oshib borishi muammosi.....	224
Xudayberdiyev K. Davlat xaridlarida elektron platformalar faoliyatini optimallashtirishda sun'iy intellektga asoslangan moderatsiya mexanizmlarining roli.....	230
Xolxo'jayev E.G'. Davlat xaridini tashkil etishda elektron savdolardan foydalanish samaradorligi hamda imkoniyatlari tahlili.	234
Rustamova F.A. Qishloq joylarda tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy samaradorligini baholash va uni oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....	238
Ikromov A. Iqtisodiy jarayonlarni ekonometrik modellashtirishda integro-differensial tenglamalarning o'rni va ularni tadqiq etish.....	241
Sarimsakov B.R., Usmonov J.Q. Xorijiy mamlakatlarda inson kapitalidan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida samarali foydalanish tajribalari.....	245
Maraimov I.R. O'zbekistonda kambag'allikni kamaytirish va aholi turmush farovonligini oshirish.....	251
Yusupov Sh.B. Xorazm viloyatida sanoat korxonalarining iqtisodiy samaradorligini baholash va oshirish yo'llari: 2020–2025 yillar tahlili va 2030 yilga prognoz.....	256
Chintemirova D.Sh. Hududlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari.....	260
Xusanova Z.R. Ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning samaradorlik ko'rsatkichlari va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar.....	265
Tajiboyev S.O., Gulimboyev S.I. Moliyaviy siyosatning investitsiya muhitiga ta'siri.....	270
Tajiboyev S.O. G'aznachilikda to'lovlarni amalga oshirish.....	275
Xaydarov M., Baxtiyorov I. Innovatsion iqtisodiyot g'oyalari va ularni oliy ta'lim tizimi orqali qo'llashning nazariy asoslari.....	279
Ким Т.В., «Зарубежный опыт развития циркулярной экономики и её роль в формировании ресурсосберегающей модели экономического развития».....	286

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” jurnali 5-son 2026 yil

Saydullayeva R.U. Analysis of financial efficiency and profitability in the green economy: the role of IAS and IFRS standards.....	292
Galatov A.A., Karimova G.A. O‘zbekistonda Islomiy moliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi nobank tashkilotlar faoliyati va strategik boshqaruv tizimining tahlili.....	296
Tursunov F.U. Oliy ta‘lim sifati monitoringini takomillashtirish mexanizmlarini rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari... ..	300
Yakhshiboev R.E. Retrieval-augmented generative AI for smart learning content.....	303
Ergashev S.A. Sanoat korxonalarini barqaror rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish: ilmiy-nazariy va amaliy asoslar.....	307
Абдуллаева Р.Ғ., Тажибаева Н.Ф. Ўзбекистон иқтисодиётида инвестицияларнинг устувор йўналишлари ва ривожланиш истиқболлари.....	311
Sayfullayev J. Why organizations struggle to implement green management practices: key barriers and practical solutions.....	316
Sirojiddinov K.I. Korxonaning raqobatbardoshligini baholash usullari.....	319
Ibraximov X.S. Mintaqalarda tadbirkorlik muhitini shakllantirishda kichik biznesni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning o‘rni va mexanizmlari.....	324
Tajibayev K.Q. Farg‘ona vodiysida kichik biznes sub‘ektlari raqobatbardoshligini oshirishning metodologik asoslari.....	328
Abdulxakimov Z.T. Barqaror rivojlanish evolyusiyasi va tarkibiy qismlari masalalari.....	332
Pazilidinov M.M. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda xorijiy mamlakatlarning raqamlashtirish tajribasi.....	337
Жураева М.З., Ахмедов Р.М. Экосистема применения системного подхода в менеджменте транспортной инфраструктуры.....	341
Ахмедов Р.М. Основные требования к разработке системного подхода в менеджменте дорожного хозяйства Республики Узбекистан.....	348
Mamasiddiqova F.X. Qishloq xo‘jaligida mahallalar ixtisosligi: nazariy asoslar, regional tahlil va rivojlantirish istiqbollari.....	353
To‘rayev A.A. Mehnat bozorini texnologik transformatsiyalash sharoitida ishchi kuchi raqobatbardoshligini oshirish mexanizmlari.	358
Солиев И.И. Концептуальные основы институциональной автономии вузов в условиях модернизации системы образования Узбекистана.....	362
Xasanov S.Q. Sanoat korxonalarini rivojlantirishda modernizatsiya va klaster yondashuvining o‘rni.....	365
Murodov A. Aholining real pul daromadlarini va xarid qobiliyatini oshirishning nazariy asoslari.....	369
Карабаев Р.З. Искусственный интеллект в цифровой экономике Узбекистана.....	374
Rasulova Sh.A. Bozor iqtisodiyotida monopoliyaning mohiyati, shakllari va uning O‘zbekiston iqtisodiyotiga ta‘siri.....	378
Salimov A.F., Rasulova Sh.A. Bozor muvozanati va unga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillar.....	381
Sattarova G.X. O‘zbekiston logistika bozorida yuk tashish xavflarini sug‘urta orqali kamaytirishning iqtisodiy samaradorligi.....	385
Муродхўжаева Ф.М. Махаллий саноатни шакллантиришда кластер ёндашуви ва 2030 йилгача трансформациянинг прогноз параметрлари (Наманган вилояти мисолида).....	389
Yoqubjonov R.R. Kichik biznes mahsulotlari raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion yondashuvlar.....	396
Nasritdinov B.X. Risklarni integral baholash kichik biznesda moslashuvchan boshqaruv tizimi asbobi sifatida	400
Abdurazzoqov H.A. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonining hozirgi holati va tendentsiyalari.....	406
Turgunov M.M., Soliyev I.I. Milliy innovatsion tizim samaradorligini oshirishning strategik yo‘nalishlari.....	411
Kuzimuratova D.M. O‘zbekiston Respublikasida tijorat banklarining investitsiya faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirish.....	414
Soyibjonov I.S. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida rivojlantirish.....	419
Axmadjanov I.I. Shaharlar va shahar aglomeratsiyalari mintaqalar va mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining drayveri.....	423
Odinayev G‘.J. Nogironligi bo‘lgan aholi qatlamini strategik sohalarda band qilish loyihalari.....	427
Abduvahobov V.B. Jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashishning global standartlari va O‘zbekiston tajribasi: kompleks tahlil.....	430
Қўзиёва Н.Н. Билвосита солиқларнинг шаклланиши ва ривожланиб бориши.....	435

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA
FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH VA TAKOMILLASHTIRISH**

**РАЗВИТИЕ И СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ
КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН**

**DEVELOPMENT AND IMPROVEMENT OF INVESTMENT ACTIVITIES OF
COMMERCIAL BANKS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

Kuzimuratova Dilafruz Mennarovna

Namangan Davlat Universiteti Yashil iqtisodiyot va
barqaror biznes kafedrası o‘qituvchisi
ORCID ID: 0009-0006-5848-4804

Annotatsiya

Mazkur maqolada O‘zbekistonda tijorat banklarining investitsiya faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirish masalalari tahlil qilingan. Banklarning iqtisodiyotdagi institutsional investor sifatidagi roli, investitsion kreditlashning ahamiyati hamda resurs bazasining barqarorligi o‘rganilgan. Shuningdek, makroiqtisodiy omillarning bank investitsiya faoliyatiga ta’siri, raqamlashtirish jarayonlari va fintex texnologiyalarining ahamiyati yoritilgan. Xalqaro tajriba asosida O‘zbekiston bank tizimidagi mavjud muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: tijorat banklari, investitsiya faoliyati, investitsion kreditlash, bank resurslari, moliyaviy barqarorlik, raqamlashtirish, fintex, risklarni boshqarish, iqtisodiy o‘sish.

В данной статье проанализированы вопросы развития и совершенствования инвестиционной деятельности коммерческих банков в Узбекистане. Рассмотрена роль банков как институциональных инвесторов в экономике, значение инвестиционного кредитования и устойчивость ресурсной базы. Освещено влияние макроэкономических факторов на инвестиционную деятельность банков, а также роль цифровизации и финтех-технологий. На основе международного опыта выявлены существующие проблемы банковской системы Узбекистана и разработаны научно-практические рекомендации по их устранению.

Ключевые слова: коммерческие банки, инвестиционная деятельность, инвестиционное кредитование, банковские ресурсы, финансовая устойчивость, цифровизация, финтех, управление рисками, экономический рост.

This article analyzes the issues of developing and improving the investment activities of commercial banks in Uzbekistan. The role of banks as institutional investors in the economy, the importance of investment lending, and the stability of the resource base are examined. The impact of macroeconomic factors on banks' investment activities, as well as the significance of digitalization and fintech technologies, is highlighted. Based on international experience, the existing problems in Uzbekistan's banking system are identified, and practical recommendations for their elimination are proposed.

Keywords: commercial banks, investment activity, investment lending, banking resources, financial stability, digitalization, fintech, risk management, economic growth.

O‘zbekiston iqtisodiyotining hozirgi bosqichida tijorat banklari nafaqat moliyaviy vositachi, balki yirik institutsional investor sifatida ham muhim rol o‘ynamoqda. Banklarning investitsiya faoliyatini rivojlantirish mamlakatning sanoat salohiyatini oshirish, infratuzilmani modernizatsiya qilish hamda yangi ish o‘rinlarini yaratish bilan uzviy bog‘liqdir.

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida banklar oddiy mablag‘ saqlovchi institut emas, balki butun iqtisodiy tizimning “yuragi” sifatida qaralmoqda. Globallashtirish va raqamlashtirish jarayonlari bank tizimining quyidagi yo‘nalishlarda rolini kuchaytirmoqda:

- kapital va investitsiyalar oqimini boshqarish;
- likvidlikni ta‘minlash;
- xalqaro moliyaviy integratsiyani rivojlantirish;
- raqamli iqtisodiyot va fintex transformatsiyasini jadallashtirish.

Zamonaviy banklar yuqori texnologiyali platformalarga aylanib, tezkor to‘lov tizimlari (masalan, SWIFT) hamda blokcheyn asosidagi operatsiyalar orqali global moliyaviy oqimlarni boshqarishda muhim o‘rin tutmoqda. Shu bilan birga, banklar sug‘urta, logistika va elektron tijorat xizmatlarini birlashtirgan moliyaviy ekotizimlarni shakllantirmoqda.

Bundan tashqari, global tendensiyalar asosida banklar ESG (ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv) tamoyillariga o‘tib, “yashil iqtisodiyot”ni moliyalashtirishda faol ishtirok etmoqda [1].

Tijorat banklarining investitsiya faoliyati masalalari iqtisodiy nazariya va amaliyotda uzoq yillardan buyon dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi. Ushbu yo‘nalishdagi ilmiy qarashlar evolyutsiyasi klassik va zamonaviy iqtisodiy maktablar g‘oyalari bilan chambarchas bog‘liq.

Avvalo, investitsiya jarayonlarining makroiqtisodiy ahamiyati J.M.Keynes tomonidan asoslab berilgan bo‘lib, u investitsiyalarni yalpi talabning eng muhim tarkibiy qismi sifatida talqin qiladi. Keynes nazariyasiga ko‘ra, investitsiyalar hajmining oshishi ishlab chiqarish kengayishiga, bandlik darajasining ortishiga va iqtisodiy o‘sishga olib keladi. Shu jihatdan, banklar tomonidan amalga oshiriladigan investitsiya kreditlari iqtisodiy faollikni rag‘batlantiruvchi muhim omil sifatida qoraladi [1].

Innovatsion rivojlanish va bank tizimi o‘rtasidagi bog‘liqlik esa J.Schumpeter tomonidan chuqur o‘rganilgan. Uning fikricha, banklar iqtisodiyotda “innovatsiyalarni moliyalashtiruvchi vositachi” sifatida xizmat qiladi va yangi texnologiyalarni joriy etishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Bu yondashuv zamonaviy investitsiya bankchiligi konsepsiyasining shakllanishiga asos bo‘ldi [2].

Zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda banklarning investitsiya faoliyati moliyaviy vositachilik nazariyasi asosida tahlil qilinadi. Jumladan, F.Mishkin banklarni axborot assimetriyasini kamaytiruvchi institut sifatida baholab, ularning investitsiya resurslarini samarali taqsimlashdagi rolini alohida ta‘kidlaydi. Joseph Sinkey esa tijorat banklarining aktiv operatsiyalarini diversifikatsiya qilish zarurligini asoslab, investitsiya faoliyatining bank barqarorligiga ta‘sirini ko‘rsatadi [3].

Mahalliy olimlar tomonidan ham mazkur masala keng o‘rganilgan. Xususan, Sh.Abdullayeva o‘z ilmiy ishlarida tijorat banklarining kredit va investitsiya faoliyati o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni yoritib, resurs bazasining barqarorligi investitsiya hajmini belgilovchi asosiy omillardan biri ekanligini ta‘kidlaydi. O.Omonov esa bank resurslarini samarali boshqarish mexanizmlarini tahlil qilib, depozit siyosatini takomillashtirish orqali investitsiya imkoniyatlarini kengaytirish mumkinligini asoslaydi [4]. Shuningdek, milliy iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarining investitsiya faoliyatini diversifikatsiya qilish masalalari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada mahalliy tadqiqotchilar banklarning qimmatli qog‘ozlar bozoridagi ishtirokini kengaytirish, uzoq muddatli kreditlashni rivojlantirish hamda risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish zarurligini qayd etadilar. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda tijorat banklari daromadlarining asosiy qismi investitsiya operatsiyalari, xususan qimmatli qog‘ozlar bilan bog‘liq faoliyat orqali shakllanadi. Ayrim davlatlarda (masalan, Buyuk Britaniya, Yaponiya va Fransiya) banklar investitsiya kompaniyalari bilan integratsiyalashgan holda faoliyat yuritib, moliya bozorlarining asosiy ishtirokchilariga aylangan [5].

Bundan tashqari, World Bank va International Monetary Fund hisobotlarida bank tizimining investitsiya jarayonlaridagi roli makroiqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash bilan chambarchas bog‘liqligi qayd etilgan. Ushbu tashkilotlar tijorat banklari tomonidan uzoq muddatli moliyalashtirishni kengaytirish iqtisodiy o‘sishning muhim omili ekanligini ta‘kidlaydi [6].

Yuqoridagi ilmiy qarashlar umumlashtirilganda, tijorat banklarining investitsiya faoliyati quyidagi asosiy yo‘nalishlarda tadqiq etilayotganini ko‘rish mumkin:

- investitsiya kreditlash orqali iqtisodiy o‘rishni rag‘batlantirish;
- bank resurs bazasini mustahkamlash va diversifikatsiya qilish;
- moliyaviy bozorlar bilan integratsiyani kuchaytirish;
- zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida investitsiya jarayonlarini optimallashtirish.

Demak, ilmiy adabiyotlar tahlili tijorat banklarining investitsiya faoliyati nafaqat moliyaviy tizim barqarorligini ta‘minlash, balki milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishda ham strategik ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi.

Tijorat banklarining investitsiya faoliyatini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, ular moliya tizimida ikki tomonlama — ya‘ni investor va qarz oluvchi sifatida ishtirok etadi. Ushbu ikki funktsiyaning uyg‘unlashuvi banklardan yuqori darajadagi likvidlik boshqaruvi, risklarni diversifikatsiya qilish va aktiv-passiv muvozanatini ta‘minlashni talab etadi.

1. Investitsiya faoliyatining tarkibiy tahlili. O‘zbekiston tijorat banklarining investitsiya faoliyati asosan quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirilmoqda:

- uzoq muddatli investitsion kreditlash;
- infratuzilma va sanoat loyihalarini moliyalashtirish;
- davlat dasturlari doirasidagi loyihalarda ishtirok;
- qimmatli qog‘ozlar bozoridagi operatsiyalar.

Amaliy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bank aktivlari tarkibida uzoq muddatli kreditlar ulushi yuqori bo‘lib, bu iqtisodiyotning real sektorini qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilganligini bildiradi. Ayniqsa, sanoat, qishloq xo‘jaligi va xizmatlar sohasidagi investitsion loyihalar bank kreditlari orqali moliyalashtirilmoqda.

2. Kreditlash hajmiga ta‘sir etuvchi omillar. Tijorat banklarining investitsion kreditlash faoliyatiga bir qator makro va mikro omillar ta‘sir ko‘rsatadi:

- Markaziy bankning qayta moliyalashtirish stavkasi;
- inflyatsiya darajasi;
- depozitlar bo‘yicha foiz stavkalari;
- majburiy zaxira me‘yorlari;
- bank resurs bazasining barqarorligi.

Xususan, O‘zbekistonda majburiy zaxira me‘yorlarining pasaytirilishi banklarning kreditlash imkoniyatlarini kengaytirib, kredit multiplikatori effektini kuchaytirdi. Bu esa iqtisodiyotga yo‘naltirilayotgan investitsiyalar hajmining oshishiga xizmat qildi.

3. Resurs bazasi va investitsiya salohiyati. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, tijorat banklarining investitsiya faoliyati bevosita ularning resurs bazasiga bog‘liq. Bank resurslarining asosiy qismini depozitlar tashkil etadi. Shu bois:

- aholi omonatlari hajmining ortishi;
- uzoq muddatli depozitlar ulushining ko‘payishi;
- foiz siyosatining samaradorligi

banklarning investitsiya imkoniyatlarini kengaytiruvchi asosiy omillar hisoblanadi.

Bu borada xalqaro tajriba muhim ahamiyatga ega. Masalan, Chili tajribasida depozitlar bo‘yicha “suzuvchi foiz stavkalari” joriy etilgan bo‘lib, bu inflyatsiya xavfini kamaytirish orqali omonatchilar manfaatini himoya qiladi va banklarning uzoq muddatli resurslarini mustahkamlaydi [3]. 4. Likvidlik va risklarni boshqarish. Banklar investitsiya faoliyatida yuqori risklarga duch keladi. Shu sababli quyidagi yo‘nalishlarda samarali boshqaruv muhim hisoblanadi:

- aktiv va passivlarni muvofiqlashtirish (ALM tizimi);
- kredit risklarini baholash;
- investitsiya portfelini diversifikatsiya qilish;
- likvidlik zaxiralarini shakllantirish.

F.Mishkin ta‘kidlaganidek, banklar moliyaviy vositachi sifatida risklarni kamaytirish va resurslarni samarali taqsimlash orqali iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlaydi [1].

5. Raqamlashtirish va fintex ta‘siri. So‘nggi yillarda banklarning investitsiya faoliyatiga raqamli texnologiyalar sezilarli ta‘sir ko‘rsatmoqda. Fintex yechimlar:

- kredit ajratish jarayonlarini tezlashtirmoqda;

- risklarni baholashda sun’iy intellektidan foydalanish imkonini bermogda;
- investitsiya monitoringini real vaqt rejimida olib borishni ta’minlamogda.

Natijada banklar investitsiya loyihalarini yanada samarali va shaffof moliyalashtirish imkoniyatiga ega bo’lmoqda.

6. Xalqaro tajriba va integratsiya. Rivojlangan mamlakatlarda tijorat banklari daromadlarining katta qismi investitsiya operatsiyalaridan shakllanadi. Masalan, Buyuk Britaniya va Yaponiya kabi davlatlarda banklar:

- qimmatli qog‘ozlar bozorida faol ishtirok etadi;
- investitsiya kompaniyalari bilan integratsiyalashgan;
- global kapital oqimlarini boshqaradi.

World Bank va International Monetary Fund ma’lumotlariga ko’ra, banklar tomonidan uzoq muddatli investitsiyalarni moliyalashtirish iqtisodiy o’sishning muhim drayverlaridan biri hisoblanadi [9]. Yuqorida keltirilgan tahlillar natijasida shuni xulosa qilish mumkinki, tijorat banklari O‘zbekiston iqtisodiyotida asosiy investitsiya manbalaridan biri sifatida muhim o‘rin egallaydi. Ular orqali iqtisodiyotning real sektoriga yo’naltirilayotgan moliyaviy resurslar hajmi yildan-yilga ortib bormogda. Ayniqsa, uzoq muddatli kreditlash mexanizmi iqtisodiy o’sishni ta’minlashda muhim vosita bo’lib xizmat qilmoqda, chunki u ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, yangi loyihalarni amalga oshirish va infratuzilmani rivojlantirish imkonini beradi.

Shu bilan birga, tijorat banklarining investitsiya faoliyati samaradorligi bevosita ularning resurs bazasi mustahkamligiga bog‘liq. Barqaror va uzoq muddatli depozitlar mavjudligi banklarga investitsion loyihalarni uzluksiz moliyalashtirish imkonini yaratadi. Bundan tashqari, makroiqtisodiy omillar, xususan foiz stavkalari va inflyatsiya darajasi investitsiya hajmiga sezilarli ta’sir ko’rsatadi. Mazkur omillar banklar tomonidan kredit resurslarini joylashtirish strategiyasini belgilashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Zamonaviy bosqichda raqamlashtirish jarayonlari ham tijorat banklarining investitsiya faoliyatini tubdan takomillashtirmogda. Raqamli texnologiyalar orqali investitsiya jarayonlarining tezligi, shaffofligi va samaradorligi sezilarli darajada oshmogda. Tijorat banklarining investitsiya faoliyati O‘zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta’minlovchi muhim omillardan biri bo’lib, u iqtisodiy o’sish, bandlikni oshirish va milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini kuchaytirishda hal qiluvchi rol o’ynamoqda.

O’tkazilgan tahlillar shuni ko’rsatadiki, O‘zbekistonda tijorat banklarining investitsiya faoliyati izchil rivojlanayotgan bo’lsa-da, uni yanada takomillashtirish uchun xalqaro tajribani chuqur o’rganish va moslashtirish zarur. Ayniqsa, rivojlangan mamlakatlar bank tizimi bilan solishtirganda ayrim farqlar va rivojlanish imkoniyatlari yaqqol namoyon bo’ladi.

1-jadval. O‘zbekiston va rivojlangan mamlakatlar banklarining investitsiya faoliyati asosiy jihatleri

Ko’rsatkichlar	O‘zbekiston tijorat banklari	Rivojlangan mamlakatlar banklari
Investitsiya faoliyatining asosiy yo’nalishi	Asosan kreditlash (real sektor)	Kreditlash bilan qimmatli qog‘ozlar bozori
Daromadlar tarkibi	Kredit foiz daromatlari ustun	Investitsiya va moliyaviy instrumentlardan yuqori daromad
Resurs bazasi	Qisqa va o’rta muddatli depozitlar ustun	Uzoq muddatli va diversifikatsiyalashgan resurslar
Risklarni boshqarish	An’anaviy usullar ustun	Zamonaviy risk-menejment tizimlari
Raqamlashtirish darajasi	Rivojlanish bosqichida	Yuqori darajada rivojlangan (fintex integratsiyasi)
Investitsiya instrumentlari	Cheklangan	Keng turdagi (derivativlar, fond bozori, fondlar)

Manba: adabiyotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Jadvalda keltirilgan solishtirma tahlil natijalariga asoslanib shuni ta’kidlash mumkinki, O‘zbekiston tijorat banklarining investitsiya faoliyati hozirgi bosqichda asosan kreditlashga

yo‘naltirilgan bo‘lsa, rivojlangan mamlakatlarda banklar investitsiya faoliyatini keng diversifikatsiya qilgan holda amalga oshirmoqda. Mazkur farq ularning daromad manbalarini kengaytirish, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash hamda risklarni samarali taqsimlash imkoniyatlarini oshiradi (1-jadvalga qarang). Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston bank tizimida hali ham bir qator tizimli muammolar mavjud. Xususan, uzoq muddatli moliyaviy resurslarning yetishmasligi, qimmatli qog‘ozlar bozorida banklar ishtirokining past darajada ekanligi hamda investitsiya instrumentlarining cheklanganligi investitsiya faoliyatining to‘liq rivojlanishiga to‘sqinlik qilmoqda. Shu bilan birga, banklarning investitsiya faoliyati samaradorligi ularning resurs bazasining barqarorligi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib qolmoqda.

Jumladan inflyatsiya darajasi va foiz stavkalarining o‘zgarishi ham tijorat banklarining investitsiya qarorlariga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. Bu holat banklardan yanada moslashuvchan, ehtiyotkor va ilmiy asoslangan investitsiya strategiyalarini ishlab chiqishni talab etadi. Shu nuqtai nazardan, risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish, investitsiya portfelini diversifikatsiya qilish hamda moliyaviy barqarorlikni ta‘minlash dolzarb vazifa hisoblanadi. Xalqaro tajriba bilan solishtirma tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston tijorat banklarining investitsiya faoliyatini yanada rivojlantirish uchun investitsiya instrumentlarini kengaytirish, uzoq muddatli resurs bazasini mustahkamlash, moliya bozorlarida faol ishtirokni ta‘minlash hamda zamonaviy boshqaruv yondashuvlarini joriy etish ustuvor yo‘nalishlar sifatida belgilanishi lozim.

Tijorat banklari O‘zbekiston iqtisodiyotida investitsiya jarayonlarini moliyalashtiruvchi muhim institutsional subyekt sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Ular orqali real sektorni moliyalashtirish, ishlab chiqarishni kengaytirish va yangi ish o‘rinlarini yaratish imkoniyatlari kengaymoqda. Ayniqsa, banklarning uzoq muddatli kreditlash faoliyati iqtisodiy o‘rishni ta‘minlashda muhim vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu bilan birga, olib borilgan tahlillar tijorat banklarining investitsiya faoliyatida ayrim tizimli muammolar mavjudligini ham ko‘rsatdi. Xususan, uzoq muddatli resurslarning yetishmasligi, investitsiya instrumentlarining cheklanganligi hamda qimmatli qog‘ozlar bozorida ishtirokning pastligi investitsiya faoliyatining to‘liq samaradorligini ta‘minlashga to‘sqinlik qilmoqda. Bundan tashqari, makroiqtisodiy omillar, jumladan inflyatsiya va foiz stavkalari o‘zgarishi banklarning investitsiya qarorlariga bevosita ta‘sir ko‘rsatmoqda.

Xalqaro tajriba bilan solishtirish natijalari shuni ko‘rsatadiki, investitsiya faoliyatini diversifikatsiya qilish, zamonaviy moliyaviy instrumentlardan keng foydalanish hamda raqamli texnologiyalarni joriy etish banklar samaradorligini oshirishning muhim yo‘nalishlari hisoblanadi. Shu sababli, O‘zbekiston tijorat banklari faoliyatida ham ushbu yondashuvlarni bosqichma-bosqich joriy etish maqsadga muvofiqdir. Tijorat banklarining investitsiya faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirish mamlakat iqtisodiyotining barqaror o‘rishni ta‘minlashda hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Mazkur yo‘nalishda resurs bazasini mustahkamlash, investitsiya faoliyatini diversifikatsiya qilish, risklarni samarali boshqarish hamda innovatsion va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish ustuvor vazifalar sifatida qaralishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Keynes J.M. The General Theory of Employment, Interest and Money. – London: Macmillan, 1936.
2. Schumpeter J.A. The Theory of Economic Development. – Cambridge: Harvard University Press, 1934.
3. Mishkin F.S. The Economics of Money, Banking and Financial Markets. – Boston: Pearson Education, 2016.
4. Абдуллаева Ш. Пул ва банклар: дарслик. – Т.: Иқтисод-молия, 2010. – 320 б.
5. Абдуллаева Ш.З. Банк иши: дарслик. – Т.: Иқтисод-молия, 2017. – 732 б.
6. Омонов А.А. Тижорат банкларининг ресурсларини самарали бошқариш масалалари: и.ф.д. дисс. автореф. – Т., 2019. – 36 б.
7. World Bank. World Development Indicators. – URL: <https://www.worldbank.org>
8. International Monetary Fund. World Economic Outlook Reports. – URL: <https://www.imf.org>